# III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2023- yil yanvar- mart oylarida yetishtirilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 2 090,4 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning shu davriga nisbatan 103,0 foizni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 1 950,4 mlrd. so‘mni (103,6 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaliklarida 115,3 mlrd. so‘mni (105,6 foiz), baliqchilik xo‘jaliklarida 24,7 mlrd. so‘mni (68,7 foiz) tashkil etdi.




**2 090,4**

**Navoiy viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m**

01



**1 950,4** **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

02



**115,3** **O‘rmon xo‘jaligi**

03



**24,7** **Baliqchilik xo‘jaligi**

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot o‘sish sur‘ati**




2023- yilning yanvar- mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 93,3 foizi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 5,5 foizi - o‘rmon xo‘jaligi, 1,2 foizi - baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, %** ***da***



## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi

| | *Jami (mlrd. so‘m)* | *O‘sish sur‘ati, % da* | *Aholi jon boshiga (ming so‘mda)* | *Jami qishloq xo‘jaligida kichik biznes ulushi, % da* |
|---|---|---|---|---|
| **Jami** | **2 090,4** | **103,0** | **1 975,8** | **96,5** |
| Navoiy sh. | 13,9 | 97,2 | 88,5 | 92,3 |
| Zarafshon sh. | 18,1 | 98,7 | 208,0 | 100,0 |
| G‘ozg‘on sh. | 23,3 | 102,0 | 2 559,1 | 86,1 |
| Karmana t. | 254,7 | 109,6 | 1 871,7 | 95,1 |
| Konimex t. | 122,6 | 107,7 | 3 276,2 | 78,4 |
| Qiziltepa t. | 398,3 | 99,0 | 2 421,9 | 99,0 |
| Navbahor t. | 303,5 | 103,8 | 2 548,1 | 99,0 |
| Nurota t. | 157,9 | 101,9 | 1 790,7 | 93,5 |
| Tomdi t. | 112,9 | 105,1 | 7 135,1 | 99,0 |
| Uchquduq t. | 140,1 | 102,2 | 3 573,7 | 99,5 |
| Xatirchi t. | 545,1 | 102,2 | 2 593,5 | 98,0 |

## 2023- yil yanvar- mart oylarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmida kichik biznes ulushi, % da




## 2023- yil yanvar- mart oylarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da



## Dehqonchilik

2023- yilning yanvar- mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 81,1 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 108,7 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 4,2 % ni tashkil qildi.

### Sabzavotlar

**Hajmi, tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 3166 tonna sabzavotlar (2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 16,0 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 73,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**2023- yilning yanvar- mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish**

**Navoiy viloyati bo‘yicha sabzavot yetishtirish hajmi, tonna**






**Chorvachilik**

2023- yilning yanvar- mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 1 844,0 mlrd. so‘mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 95,8 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

## 2023- yilning yanvar- mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish

### Go‘sht (tirik vaznda)

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 30,3 ming tonna go‘sht (2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 3,5 % ga ko‘p) yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 84,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Hudadlar bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna




## Sut

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**



## Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi






2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 84,8 ming tonna sut (2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 3,0 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 90,7 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha sut yetishtirish hajmi, tonna



# Tuxum

### Hajmi, mln. dona




### O‘sish sur’ati




### Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi






2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 77,2 mln. dona tuxum (2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 2,3 % ga ko‘p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 62,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha tuxum yetishtirish hajmi, ming dona




## Baliq ovlash

### Hajmi, tonna.




### O‘sish sur’ati



## Yetishtirilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi






2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 1 296,0 tonna (2022- yilning yanvar- martiga nisbatan 68,7 % ) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xoʻjalik toifalaribo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 63,9 % i qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Navoiy viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



Chorvachilik. 2023- yil 1- aprel holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 3,3 foizga (jami 525,6 ming boshni tashkil qildi), qo‘y va echkilar 4,5 foizga (2 394,5 ming bosh), otlar 4,1 foizga (21 123 bosh), parrandalar 5,7 foizga (3,6 mln bosh) ko‘paydi.




## 2023- yil 1- aprel holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

| | *ming bosh* | *o‘sish sur‘ati, % da* |
|---|---|---|
| **Yirik shoxli qoramol** | **525,6** | **103,3** |
| shu jumladan: | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 45,8 | 111,4 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 467,0 | 102,1 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 12,8 | 123,1 |
| **ulardan sigirlar** | **209,6** | **103,0** |
| shu jumladan: | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 14,9 | 109,6 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 191,7 | 102,4 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 3,0 | 115,4 |
| **Qo‘y va echkilar** | **2 394,5** | **104,5** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 655,9 | 104,0 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 1 382,9 | 101,6 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 355,7 | 118,6 |
| **Otlar (bosh)** | **21 123** | **104,1** |
| shu jumladan: | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 8 750 | 104,8 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 10 743 | 100,7 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1 630 | 128,2 |
| **Parrandalar** | **3 582,9** | **105,7** |
| shu jumladan: | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 410,1 | 105,2 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 2 074,3 | 91,8 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1 098,5 | 148,7 |

Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 88,9 foizni, fermer xo‘jaliklarida esa 8,7 foizni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 91,5 va 7,1 foizni, qo‘y va echkilar 57,8 va 27,4 foizni, otlar 50,9 va 41,4 foizni, parrandalar 57,9 va 11,4 foizni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 30,3 ming tonna go‘sht (2022-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 3,5 foizga ko‘p), qariyib 84,8 ming tonna sut (3,0 foizga ko‘p), 77,2 mln. dona tuxum (2,3 foizga ko‘p), 171,1 ming dona qorako‘l teri (5,2 foiz ko‘p), yetishtirildi.



**2023- yil yanvar- mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari**

| | *miqdori* | *o‘sish sur‘ati, % da* |
|---|---|---|
| **Go‘sht (tirik vaznda), ming tn.** | **30,3** | **103,5** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 2,5 | 111,3 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 25,7 | 100,7 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 2,1 | 140,0 |
| **Sut, ming tn.** | **84,8** | **103,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 6,1 | 102,8 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 76,9 | 102,3 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1,8 | 152,2 |
| **Tuxum, mln. dona** | **77,2** | **102,3** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 9,4 | 114,7 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 47,8 | 100,2 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 20,0 | 102,3 |
| **Qorako‘l teri, ming dona** | **171,5** | **105,2** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 16,2 | 140,4 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 149,5 | 101,4 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 5,8 | 148,6 |

| | *miqdori* | *o‘sish sur‘ati, % da* |
|---|---|---|
| **Ovlangan baliq, tonna** | **1 295,7** | **68,7** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 420,4 | 123,6 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 48,0 | 106,7 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 827,3 | 55,1 |

**2023-yil 1-aprel holatiga xo‘jalik toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | *Fermer xo‘jaliklari* | | *Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari* | | *Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | *ming bosh* | *o‘sish sur‘ati, % da* | *ming bosh* | *o‘sish sur‘ati, % da* | *ming bosh* | *o‘sish sur‘ati, % da* |
| Yirik shoxli qoramollar | 45,8 | 111,4 | 467,0 | 102,1 | 12,8 | 123,1 |
| Sigirlar | 14,9 | 109,6 | 191,7 | 102,4 | 3,0 | 115,4 |
| Qo‘ylar va echkilar | 655,9 | 104,0 | 1 382,9 | 101,6 | 355,7 | 118,6 |
| Otlar | 8,6 | 104,8 | 10,7 | 100,7 | 1,6 | 128,2 |
| Parrandalar | 410,1 | 105,2 | 2 074,3 | 91,8 | 1 098,5 | 148,7 |

## 2023- yil 1- aprel holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni

### Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)




### shu jumladan: sigirlar (ming bosh)




### Qo'ylar va echkilar, ming bosh



**Otlar (bosh)**




**Parrandalar (ming bosh)**




Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) yetishtirishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht yetishtirish umumiy hajmida ularning ulushi 93,1 foizni, sut yetishtirishda 97,9 foizni, tuxum yetishtirishda 74,2 foizni tashkil etdi.

**Fermer xo‘jaliklari.** 2023- yil yanvar- mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 184,9 mlrd. so‘mni yoki 2022-yilning tegishli davriga nisbatan 107,7 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 9,6 foizni tashkil etdi.

2023- yil 1- aprel holatiga fermer xo‘jaliklarida 45,8 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 14,9 ming bosh sigir, 655,9 ming bosh qo‘y va echkilar, 8 750 bosh ot, 410,1 ming bosh parrandalar mavjud.



## 2023- yil yanvar- mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

| | **Yanvar- mart** | | | | ***O‘sish sur‘ati, % da*** |
|---|---|---|---|---|---|
| | ***2022- yil*** | | ***2023- yil*** | | |
| | ***tonna*** | ***umumiy hajmidagi ulushi, % da*** | ***tonna*** | ***umumiy hajmidagi ulushi, % da*** | |
| Don | - | - | - | - | - |
| Kartoshka | - | - | - | - | - |
| Sabzavot | 180 | 6,6 | 208 | 6,6 | 115,6 |
| Poliz | | | | | |
| Meva | - | - | - | - | - |
| Uzum | - | - | - | - | - |
| Paxta | - | - | - | - | - |
| Go‘sht, tirik vaznda | 2 225 | 7,6 | 2 476 | 8,2 | 111,3 |
| Sut | 5 975 | 7,3 | 6 142 | 7,2 | 102,8 |
| Tuxum, ming dona | 8 187 | 10,8 | 9 392 | 12,2 | 114,7 |
| Qirqib olingan jun | - | - | - | - | - |
| Qorako‘l teri, dona | 11 521 | 7,1 | 16 179 | 9,4 | 140,4 |
| Pilla | - | - | - | - | - |
| Olingan asal | - | - | - | - | - |
| Ovlangan baliq | 340,0 | 18,0 | 420,4 | 32,4 | 123,6 |